



BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023-yil yanvar - may



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vosisidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyl ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichlari shular jumlasidandir.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-may oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **6 053,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 - yilning yanvar-may oylariga nisbatan **103,7** % ga yetdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **459,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **149,7** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5593,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **101,2** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **716,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **105,5** %) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmasan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonal ar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So'm	2022- yil yanvar – may oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	6 053,4	103,7	459,6	149,7	5 593,8	101,2
Buxoro shahri	1 743,5	104,0	225,0	124,6	1 518,5	101,5
Kogon shahri	247,3	104,2	4,5	128,7	242,8	103,8
<i>tumanlar</i>						
Olot	173,9	104,2	3,2	97,5	170,7	104,4
Buxoro	476,1	102,2	2,0	107,5	474,1	102,2
Vobkent	218,3	103,7	2,9	92,4	215,4	103,8
G'ijduvon	1 048,8	102,4	30,5	133,8	1 018,3	101,7
Kogon	172,6	102,0	102,1	142,1	70,5	72,4
Qorako'l	537,1	105,6	4,7	95,8	532,4	105,7
Qorovulbozor	108,1	104,5	0,6	90,1	107,5	104,6
Peshku	195,3	112,4	73,6	22,4 m.	121,7	71,4
Romitan	413,9	103,7	2,9	94,3	411,0	103,8
Jondor	413,5	102,9	4,4	89,6	409,1	103,0
Shofirkon	305,0	102,1	3,2	98,8	301,8	102,2

2023- yilning yanvar-may oylarida 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning Peshku (**112,4 %**), Qorako'l (**105,6 %**) va Qorovulbozor (**104,5 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-may, mlrd.so'm)



So'nggi 6 yillikda chakana savdo Tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-may oyida kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan **113,2%** ni yoki **5 212,5** mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati
oylar kesimida (foizda)**
(2022 yil, 2023- yil yanvar–may oylari)




2023- yilning yanvar-may oylarida o'sish sur'ati 103,7 % ni tashkil qildi.




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 593,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 - yilning yanvar-may oylariga nisbatan **1,2 %** ga ko'paydi. . Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022 - yilning yanvar-may oylariga nisbatan **49,7 %** ga o'sdi va **459,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,6 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorovulbozor (**99,5 %**), Romitan (**99,3 %**) va Buxoro(**99,6 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **7,6 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Kogon (**59,2 %**), Peshku (**37,7 %**) tumanlari va Buxoro (**12,9 %**) shahrida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Buxoro viloyati	3 006,9	102,0
Buxoro shahri	6 016,1	102,1
Kogon shahri	3 876,2	102,1
<i>tumanlar</i>		
Olot	1 688,2	102,7
Buxoro	2 717,6	100,6
Vobkent	1 494,0	102,0
G'ijduvon	3 301,4	100,7
Kogon	2 085,1	100,2
Qorako'l	3 161,3	104,2
Qorovulbozor	5 511,8	101,9
Peshku	1 512,9	110,5
Romitan	2 774,4	101,9
Jondor	2 265,8	101,2
Shofirkon	1 653,0	100,7


2023 - yilning yanvar-may holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 006,9** ming. so'mni (2022 - yilning yanvar-may oylariga nisbatan **102,0** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qorovulbozor (**5 511,8** ming. so'm), Buxoro shahri (**6 016,1** ming. so'm) va G'ijduvon (**3 301,4** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Buxoro viloyati bo'yicha 2023 - yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **716,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **105,5 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12- bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **337,1** mlrd. so'mni (**112,8 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **379,5** mlrd so'mni tashkil etdi (**99,8 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – may oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	716,6	105,5	337,1	112,8	379,5	99,8
Buxoro shahri	107	87,9	96,5	93,3	10,5	57,2
Kogon shahri	18,9	105,7	5,9	54,7	13,0	182,9
<i>tumanlar</i>						
Olot	57,8	124,1	8,3	90,9	49,5	132,3
Buxoro	11,0	62,0	10,4	118,8	0,6	7,1
Vobkent	64,5	125,9	38,4	118,1	26,1	139,4
G'ijduvon	123,2	61,9	65,0	59,4	58,2	64,9
Kogon	1,8	4,3 m.	1,8	4,3 m.	-	-
Qorako'l	153,1	2,0 m.	77,8	29,4 m.	75,3	102,2
Qorovulbozor	14,4	121,7	2,7	153,2	11,7	116,3
Peshku	42,4	134,9	8,6	3,6 m.	33,8	116,4
Romitan	40,7	125,1	9,7	166,2	31,0	116,2
Jondor	45,8	158,7	5,0	4,6 m.	40,8	146,9
Shofirkon	36	83,1	7,0	65,7	29,0	88,8

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **337,1** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**131,5** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 131,5
	Non va non mahsulotlari 34,9
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 15,5
	Tovuq go‘shti 19,5
	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 17,7
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 8,0
	Tuxum 8,9
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 2,4
	Ziravorlar 5,9
	Tuzlamalar 6,2
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 3,1
	Nooziq-ovqat tovarlari 83,5

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023 - yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o’tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **379,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **335,5** mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar **41,3** mlrd. so‘mni, otlar **1,5** mlrd. so‘mni, parrandalar **1,2** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so‘m
 2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	182,3
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	63,2
 1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	90,0
 Qo‘ylar	27,1
 Otlar	1,5
 Echkilar	14,2
 Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,7
 Tovuqlar	0,3
 Quyonlar	0
 Qushlar	0,2

2023 - yil 1 - iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **2 094** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – iyun holatiga nisbatan **236** taga oshgan va o'sish sur'ati **119,1 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 089** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-may oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **4,0 %** ni tashkil etib, **243,4** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,9 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **88,9 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonala r mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan , foizda	Kichik biznes va mikrofirma -lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	243,4	102,9	27,1	103,1	216,3	102,9
Buxoro shahri	122,5	113,0	20,3	103,2	102,2	115,2
Kogon shahri	6,8	109,0	-	-	6,8	109,0
<i>Tumanlar</i>						
Olot	4,9	120,1	-	-	4,9	120,1
Buxoro	16,6	139,1	-	-	16,6	139,1
Vobkent	15,5	93,1	-	-	15,5	93,1
G'ijduvon	19,5	101,1	-	-	19,5	101,1
Kogon	7,0	108,9	-	-	7,0	108,9
Qorako'l	8,1	78,3	-	-	8,1	78,3
Qorovulbozor	3,2	67,3	-	-	3,2	85,5
Peshku	4,5	64,8	-	-	4,5	64,8
Romitan	24,8	83,8	6,8	121,4	18,0	75,0
Jondor	4,8	63,4	-	-	4,8	63,4
Shofirkon	5,2	122,0	-	-	5,2	122,0

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- iyun holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) hajmi **1 384,8** mlrd. so'm bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan **112,4 %** ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **966,5** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **117,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **418,3** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	1 384,8	100,0
Buxoro shahri	827,1	59,7
Kogon shahri	4,2	0,3
tumanlar		
Olot	5,4	0,4
Buxoro	7,2	0,5
Vobkent	225,8	16,3
G'ijduvon	247,9	17,9
Kogon	3,8	0,3
Qorako'l	9,9	0,7
Qorovulbozor	3,7	0,3
Peshku	13,4	1,0
Romitan	9,7	0,6
Jondor	10,6	0,8
Shofirkon	16,1	1,2

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (**827,1** mlrd. so'm), Vobkent (**225,8** mlrd. so'm) va G'ijduvon (**247,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingen va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar – may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 781,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **7,4 %** ga o‘sdi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **3 393,5 mlrd. so‘mni** tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **107,4 %**ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **71,0 %** ni tashkil qildi.




ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Olot (**26,2 m.**), Peshku (**13,0 m.**) va Qorovulbozor (**8,4 m.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 489** tani tashkil etib, 2022- yil 1- iyun holatiga nisbatan **739** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **142,2 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **25** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 464** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	4 781,6	107,4	1 388,1	107,4	3 393,5	107,4
Buxoro shahri	1 640,7	112,8	150,4	7,0 m.	1 490,3	104,0
Kogon shahri	143,5	104,5	72,6	88,6	70,9	128,0
<i>tumanlar</i>						
Olot	157,1	13,1 m.	0,2	26,2 m.	156,9	13,1 m.
Buxoro	154,2	103,5	-	-	154,2	103,5
Vobkent	616,5	61,3	602,0	60,9	14,4	89,7
G'ijduvon	437,4	85,2	150,4	122,0	287	73,5
Kogon	242,2	118,0	147,3	4,2 m.	94,9	55,8
Qorako'l	58,2	154,1	5,0	-	53,2	140,9
Qorovulbozor	37,0	121,5	0,2	8,4 m.	36,8	121,0
Peshku	658,5	4,2 m.	259,3	13,0 m.	399,2	2,9 m.
Romitan	156,1	97,4	0,7	14,3	155,4	100,0
Jondor	431,1	110,7	-	-	431,1	110,7
Shofirkon	49,1	24,6	-	-	49,1	26,7



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Тел. 65-223-75-63